

INSON AXLOQIY NORMALARGA AMAL QILISHI DARKOR

Karimova Shaxzoda Sobiʼjonovna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Gumanitar fanlar fakulteti Milliy gʻoya: maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi

yoʻnalishi 18/1 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Axloqiy normalarga rioya qilish har bir inson amal qilishi kerak boʻlgan qonundir. Sababi, axloqiy normalar bizni inson sifatida koʻrsatib beruvchi koʻzgulardan biridir. Insonni inson sifatidagi darajasi uning tarbiyasi va mana shu tarbiyasiga bogʻliq boʻlgan holda axloqiga ham daxldordir. Axloq esa axloqiy normalar bilan tartibga solib turiladi. Shu bois ham ushbu maqola shularga yoʻnaltirilgan.

Kalit soʻzlar: axloq, axloqiy normalar, tarbiya, vijdon, burch, masʼuliyat, korruptsiya, halollik, qonun.

ЧЕЛОВЕК ДОЛЖЕН СЛЕДОВАТЬ ПРАВСТВЕННЫМ НОРМАМ

Каримова Шахзода Собитжоновна

Чирчикский государственный педагогический институт

Ташкентской области Национальная идея гуманитарного факультета:

основы духовности и правового воспитания Студент группы 18/1

АННОТАЦИЯ

Нравственность - это закон, которому должен следовать каждый. Потому что мораль - одно из зеркал, определяющих нас как людей. Уровень человека как личности зависит от его воспитания и воспитания, а также от его нравственности. С другой стороны, мораль определяется моральными нормами. Вот о чем эта статья.

Ключевые слова: мораль, этические нормы, образование, совесть, долг, ответственность, коррупция, честность, закон.

A PERSON SHOULD FOLLOW MORAL STANDARDS

Karimova Shahzoda Sobitjonovna

Chirchik State Pedagogical Institute, Tashkent Region

National idea of the Faculty of Humanities: the basics of spirituality and legal education Student of group 18/1

ANNOTATION

Morality is a law that everyone must follow. Because morality is one of the mirrors that define us as people. The level of a person as a person depends on his upbringing and upbringing, as well as on his morality. On the other hand, morality is determined by moral standards. That's what this article is about.

Key words: morality, ethical standards, education, conscience, duty, responsibility, corruption, honesty, law.

Axloqiy normalarga rioya qilish har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan qonundir. Sababi, axloqiy normalar bizni inson sifatida ko'rsatib beruvchi ko'zgulardan biridir. Xo'sh, axloq o'zi nima? Axloq – kishilarning bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar yig'indisidir. Axloq har bir kishining xulqini, ichki dunyosini ko'rsatadi. Axloqqa milliy urf-odatlar, an'analar ta'sir qiladi. Ba'zi millat kishilari o'rtasidagi munosabatlarda oddiy hol deb qaraladigan xatti-harakatlar boshqa millatlar axloq qoidalarida rad etilishi mumkin. Axloqning yuksak darajada bo'lishi jamiyatning rivojiga bevosita ta'sir qiladi yoki aksincha. Axloq – axloq normalari bilan taribga solinadi, ular huquqiy normalardan farq qilib, majburiy xarakterga ega emas [1]. Unday bo'lsa, axloq normalarining o'zi nima? Axloq normalari – ezgulik va yovuzlik, qadr-qimmat, adolat va nohaqlik haqidagi axloqiy tushunchalarga mos ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalaridir [2]. Axloqiy normalar urf-odat, namuna kuchi, jamoatchilik fikri ta'sirida vujudga keladi. Axloqiy normalarni bajarish ixtiyoriy, vijdonga bog'liq. Uning buzilishiga nisbatan

ommaviy qoralash, jamoat izzasi qo‘llaniladi. Axloq ishontirish, tushuntirish bilan ta’minlanadi [3].

Insonlar nima sababdan axloqiy normalarga rioya qilishi kerak? Sababi, insonlarni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan uning nutqi, ongi va albatta, axloqidir. Inson axloqqa egaligi sababli ham inson nomiga javob bera oladi bo‘lmasa uning hayvondan farqi qolmaydi. Vaholanki ba’zi hayvonlar hozirgi kunda o‘zini “insonman” deb yurganlardan yaxshiroq fazilatlariga egaligiga guvoh bo‘lamiz. Jamiyatda o‘z o‘rni va hurmatiga ega bo‘lishni xohlagan inson avvalo jamiyatdagi axloqiy normalarga, albatta, amal qilishi kerak bo‘ladi. Sababi, yaxshi rahbar yoki yaxshi xodim bo‘lish uchun o‘z ishiga sadoqat, axloq, vijdon, burch va mas’uliyat hissini tuygan holda mehnat qilinsagina rivojlanish bo‘ladi. Buning natijasida ba’zi bir salbiy illatlarga barham berilishiga xizmat qilinadi. Axloq normalarida halollik degan tushuncha bor. Agar har bir inson xoh u yuqori lavozim, xoh u quyi lavozimning egasi bo‘lsin, o‘zida halollik xislatini shakllantirib o‘z vazifasini vijdonan bajarsa davlatning katta dushmani bo‘lib turgan illatlardan biri korrupsiyaga ham barham berilar edi. Yuqorida aytib o‘tilganidek axloqiy normalar har bir insonning o‘ziga, axloqi va vijdoniga bog‘liq. Bizning millatda kichiklar kattalarni ko‘rganida, albatta, salom berishlari, qo‘lida og‘ir yuk bilan ketayotganlarga yordam berishlari, yaqinlarining og‘ir kunlarida ularga madad berishlari, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lishlari va hokazolar mavjud. Bular axloqiy normalarda mujassamlashgan hisoblanadi. Masalan: avtobusda bir yoshi katta kishi tik turgan holda ketayotganlarida yoshlar u kishiga joy berishlari qonunda belgilanmagan. Sababi, yoshlar joy bersa yoki bermasa bu ularning huquqi. Lekin axloqiy jihatdan u kishiga, albatta, joy berilishi kerak. Bu esa axloqiy normalarni amalda bajarilishiga olib kelinadi. Shunday ekan axloqiy normalarni har bir inson o‘zida shakllantirib, o‘zida mujassamlashtirib va atrofdagilarga ham o‘ziga ravo ko‘rganlarini bo‘lishsa jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Aksi bo‘ladigan bo‘lsa ya’ni inson axloqiy normalarga rioya qilmay qo‘ysa mamlakatda: yolg‘onchilik, razillik, fahsh ishlar, omonatga xiyonat hamda yovuzlik ularning ortidan esa har qanday jinoyat sodir bo‘lishiga olib

kelinadi va razilliklar avj oladi. Bular esa mamlakatning tinchligiga va rivojlanishiga raxna solib uni beqarorlik sari yetaklaydi. Bularning oqibatida esa juda ko'p fojialar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan biz bularga yo'l qo'ymasligimiz hamda o'z-o'zimizni doimo isloh qilishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <http://geografiya.uz/attestatsiya/9418-talim-tarbiya-tizimiga-oid-atama-va-izohli-lugatlar-toplami.html>
2. <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-21658.html>
3. <http://geografiya.uz/attestatsiya/9418-talim-tarbiya-tizimiga-oid-atama-va-izohli-lugatlar-toplami.html>